

QO‘QON XONLIGI SHAHARSOZLIGI TARAQQIYOTI

Guliston Davlat Universiteti
Psixologiya va ijtimoiy fanlar
fakulteti Tarix yo‘nalishi talabasi
Suyunov Ziyomuxammad

Annotatsiya: Ushbu maqolada Qo‘qon xonligining shaharsozlik sohasidagi rivojlanish jarayonlari tarixiy-madaniy manbalar asosida tahlil qilinadi. Xonlik davridagi shaharlarning hududiy tuzilishi, me‘moriy uslublar, infratuzilma, mudofaa tizimi va aholi ehtiyojlarini qondirishdagi shaharsozlik yondashuvlari o‘rganilgan. Ayniqsa, Qo‘qon, Marg‘ilon, Andijon kabi yirik shaharlarda bozorlar, madrasa, masjid va karvonsaroylarning joylashuvi hamda ularning shahar hayotidagi roli ilmiy asosda ko‘rsatib o‘tiladi. Shuningdek, xonlik davrida shaharlarni rejalashtirishdagi an‘anaviy va innovatsion yondashuvlarning uyg‘unligi ham tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: Madrasai Mir, Daxmai Shohon, Modarixon daxmasi, Xudoyorxon o‘rdasi, “Qo‘qandi Latif”, xazira.

O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A. Karimov ta’kidlaganidek: «Farg‘ona viloyatining o‘ziga xos yana bir jihati bu yerda turli davrlarda barpo etilgan Madrasai Mir, Daxmai Shohon, Modarixon daxmasi, Xudoyorxon o‘rdasi kabi ko‘plab tarixiy obidalar, Poshshopirim, Bibi Ubayda, Sohibi Hidoya kabi muqaddas joylar xalqimizning yuksak me‘morchilik san’ati, ajdodlarimizning yaratuvchilik salohiyatidan, piri komilligidan dalolat beradi».¹

Olimlarning fikriga ko‘ra, Qo‘qon xonligi davrida keng ko‘lamli qurilish va irrigatsiya ishlari olib borilgan, shahar va qishloqlarni obodonlashtirishga katta ahamiyat berilgan. Bu vaqt mobaynida o‘nlab ko‘priklar, karvonsaroylar, hammomlar, yo‘llar, yuzlab masjidlar, madrasa va maqbaralar qurilgan.

¹ Каримов И. Халк ишончи олий масъулият 142-б.

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Volume 02. Issue 05. May 2025

Qo‘qon xonligining me‘moriy obidalari va qisman ularning epigrafikasi A. Pisarchik, I. Borodina, I. Azimov, S. Vasilev, M. Yusupova, Y. Kavaxara, N. Abdulahatov va boshqa bir qator tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan.²

Qo‘qon xonligi davrida (1709-1876-yillar), Qo‘qon shahri Markaziy Osiyoning eng yirik siyosiy, iqtisodiy, madaniy markaziga aylandi. 1798-yili Olimxon davridan boshlab, mamlakatning nomi rasmiy ravishda “Qo‘qon xonligi” deb nomlandi va boshqaruvchi esa “Xon” deb atala boshlandi. Qo‘qon xoni Umarxon davrida, shahar “Qo‘qandi Latif” degan nisbatga ega bo‘ldi. Bu go‘zal, yoqimli va nafis shahar degan ma‘noni anglatadi. Me‘morchilik, hunarmandchilik, ilm-fan, savdo-sotiq nihoyatda rivojlandi³.

Shaharsozlik madaniyati an‘anaviy so‘ngi o‘rta asr shaharlari usulida shakllangan. Bitta umumiy markazga ega bo‘lgan shahriston aniq rejalangan bo‘lib, balandligi 7 metr keladigan qal‘a devor bilan o‘ralgan. Devorlardan 12 ta darvoza ochilgan: Toshkent, Qudug‘lik, G‘oziyog‘lik, Xo‘jand, Afg‘on bog‘ yoki Isfara, Mo‘yimuborak, Qatag‘on, Rishton, Marg‘ilon, Tog‘lik, Namangan, Chust darvozalari. Darvozalar joylashgan joyning nomi yoki darvozadan boshlangan yo‘l qayerga olib borsa, o‘sha joyning nomi bilan nomlangan⁴.

Shaharda yirik madrasalar, ko‘plab karvonsaroylar, bozorlar, hammomlar hamda boshqa jamoat binolari o‘ziga xos Farg‘ona maktabi usulida barpo etilgan. Bizning davrgacha yetib kelgan Madrasai Mir (1798), Madrasai Xishtin (1772), Jome masjidi (1817), “Dahmai shohon” maqbarasi (1824), “Modarixon dahmasi” (1824), Sohibzoda Hazrat madrasasi (1861), Xudoyorxon o‘rdasi (1870) va boshqa obidalar me‘morchilik va shaharsozlik madaniyatining betakror na‘munalaridir.

Shaharda hunarmandlar mahalla - mahalla bo‘lib yashar edilar. Shuning uchun ham shahar mahallarga bo‘linib, ularning nomlari shu yerda yashaydiganlarning kasb-hunarlarini bilan nomlangan va hozirgi vaqtgacha saqlanib qolgan.

² Ўзбекистон обидаларидаги битиклар: Фаргона / Ф. Абдухолиқов, Э. Ртвеладзе, А. Ҳақимов, Б. Абдухалимов, У. Алимов, А. Мансуров, А. Маннонов, Н. Муҳамедов, А. Раззоков, С. Файзиёва, А. Турдналиев. // «Uzbekistan Today» АА, 2016. – 352 б.

³ Бабаджанов Б.М. Кокандское ханство: Власть, политика, религия. – Ташкент-Токиё: Янги нашр, 2010. – 543 с.

⁴ Қодирова Т.Ф., Лавров В.А., Маматмусаев Т.Ш. Ўрта Осиё шаҳарсозлик маданияти. Ўқув қўлланма. – Тошкент, 2014. – Б. 102-103.

Qo‘qon xonligi shaharsozligi butun O‘rta Osiyo shaharsozlik an‘analarini o‘ziga singdirishi bilan bir qatorda qadimiy Farg‘ona vodiysiga xos mahalliy madaniyat asosida yuzaga kelgan bo‘lib, shuning uchun ham XVIII asr Qo‘qon xonligi shaharlari asosan o‘rta asrlarga oid feodal shaharlarga xos ko‘rinishni o‘zida ifoda etgan. Shaharlar ark va shahristondan iborat bo‘lgan. Shahriston markazlarida, ko‘chalar kesishgan joy — chorsuda an‘anaviy holatda bozor joylashgan. Bu ikki asosiy ko‘chaning kesishishi natijasida shahar to‘rt dahaga bo‘linib, dahalar o‘z navbatida bir necha mahalla va guzarlardan tashkil topgan.

Shaharning tarixiy qismi Registon maydoni hisoblanib, Chorsu chorrahasida joylashgan. Tarixiy manbalar va sayyohlarning ma‘lumot berishicha, xuddi shu Chorsudan Buyuk Ipak yo‘lining ustidan Qo‘qonsoy va Oqtepasoy suv yo‘nalishlarida shahar qurila boshlagan. Chorsudagi eng muhtasham bino bu Xudoyorxon saroyi hisoblanadi. Dastlab xon qarorgohi, keyinchalik saroy ahli yashaydigan 100ga yaqin xona, zallar hamda bir necha hovli qurilgan. Xudoyorxon saroyi an‘anaviy usul – har 4 tomondan xonalar qurilgan ochiq hovlidan iborat rejaviy usulni takrorlaydi.⁵

XVIII asrdan boshlab Qo‘qon xonligi me‘morchiligida ham bir qator o‘ziga xos yangi yo‘nalishlar vujudga keldi. Jumladan maqbara va dahmalarning bunyod etila borishi yangi bir turdagi imorat – xaziralarning kelib chiqishiga sabab bo‘ldi. Madrasalar old ko‘rinishlariga turarjoylarda ishlatiladigan yog‘och ustunli ayvon va ganch shakllari qo‘llanilishi yangi yo‘nalishdagi me‘moriy fikrlashlarga olib keldi. Bu yerda biz Buxoro yoki Xivadagidek alohida minora qurilishini ko‘rmaymiz. Turarjoy imoratsozligi Farg‘ona va Qoshg‘ar an‘analarini uyg‘unlashtirib g‘oyat nafis yechimlarni keltirib chiqardi. Shift, ustun va boshqa yog‘och elementlarida o‘ymakorlik qatori rangli naqshinkorlik mahorati xalq amaliy san‘atida o‘zgacha xususiyat va alohidalikni keltirib chiqardi.⁶

1876-yilda Qo‘qon xonligi Rossiyaga qo‘shib olinadi. Shundan keyin ikki tuzilmali “Eski shahar” va “Yangi shahar” qismlari paydo bo‘ladi. “Eski shahar” sharq ko‘hna me‘morchilik obidalari bilan mashhur bo‘lsa, “Yangi shahar” yuz yillardan oshgan tarixga ega bo‘lgan kolonial davrdagi yevropacha me‘morchilik obidalari bilan e‘tiborni jalb etadi. Rus kapitalizmi kirib kelishi natijasida turarjoy binolari, savdo

⁵ Худойқулов Т.Д. XIX асрда Қўқон хонлигининг ижтимоий – сиёсий ва маданий ҳаёти. Тарих фан. номзод. ... дис. автореферати. – Тошкент, 2009. – 24 б.

⁶ М. К. Ахмедов. ЎРТА ОСИЁ МЕЪМОРЧИЛИГИ ТАРИХИ. ТОШКЕНТ. "ЎЗБЕКИСТОН". 1995.

inshootlari, yangi tipdagi maktab, cherkov kabi fuqaro inshootlari bilan bir qatorda fabrika, zavod, bank kabi binolar ham qurila boshlandi. Ularning qurilishida rus an'anaviy me'morchiligi shakllari bilan bir qatorda Yevropada taraqqiy etgan gotika, Uyg'onish davrining barokko va klassitsizm singari uslub belgilari namoyon bo'ladi. Yevropa me'moriy uslublariga mahalliy me'morchilik an'analari, qurilish materiallari, amaliy san'at namunalari ta'sir ko'rsatib, o'ziga xos yangiliklar yuzaga keldi. Xuddi shuningdek, O'rta Osiyo me'morchiligiga Yevropa muhandislik yutuqlari ham ma'lum darajada ta'sir ko'rsatdi. Jumladan, “Rus - Osiyo banki” (hozirgi Paxta banki), “Aka-uka Vadyaevlar uyi” (hozirgi hokimlik binosi), “Rus davlat banki” (hozirgi adabiyot muzeyi), “Potelyaxovlar uyi” (hozirgi markaziy telegraf) va boshqa ko'plab binolar shaharning “Yangi shahar” qismidagi o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turgan, shuningdek shaharsozlik madaniyatining kolonial davridagi yangi bosqichi bo'lib tarixga kirgan.

O'rta Osiyoga keltirilgan yevropacha turarjoy binolari nusxasi yaxlit cherdakli to'rt burchak tom ostiga joylashgan xonalar majmuasidan iborat edi. Undagi xonalarning bir nechtasiga bitta yo'lakdan kirilishi, tomning qulayligi, isitish sistemasi, derazalarning har tomonga chiqishi bu turdagi binolarning tez orada keng tarqalishiga sabab bo'ldi. Taxminan bir asrlik vaqt ichida ming yilliklar davomida O'rta Osiyoda yuzaga kelgan, atrofi o'rab olingan hovlili uyning asosiy elementi qilib olingan imoratlar o'rniga o'ta noqulay tur — hovlining bir burchagigagina joylashtirilgan imorat qurish an'anaga aylanib qoldi.

Toshkent va Farg'onadagi harbiy yig'ilish binolari, gubernator inshootlari, turarjoy kvartallari, markaziy ko'chalardagi cherkovlar, savdo do'konlari, madaniy va ma'muriy ahamiyatdagi binolar O'rta Osiyoning an'anaviy me'morchiligi namunalaridan yaqqol ajralib turadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkin-ki, Qo'qon xonligi shaharsozligi shahar tuzilishi va qurilish yo'nalishi bo'yicha Markaziy Osiyoda o'zining o'rniga ega bo'ldi. XX asrga kelib o'rta asrlar me'morchiligidagi handasaviy uyg'unlashtirish usullari, naqsh bog'lash san'ati, koshinkorlik, gumbaz, qanoslar bog'lash va shu singari qator an'analari qadrsizlanib, iste'moldan chiqib ketdi. Bugungi kunda qadimiy qadriyatlar qaytadan o'rganilib chiqilmoqda va undan foydalanish choralari qidirilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Каримов И. Халк ишончи олий масъулият 142-б.
2. Ўзбекистон обидаларидаги битиклар: Фаргона / Ф. Абдухолиқов, Э. Ртвеладзе, А. Ҳакимов, Б. Абдухалимов, У. Алимов, А. Мансуров, А. Маннонов, Н. Муҳамедов, А. Раззоков, С. Файзиева, А. Турдалиев. // «Uzbekistan Today» АА, 2016. – 352 б.
3. Бабаджанов Б.М. Кокандское ханство: Власть, политика, религия. – Ташкент-Токиё: Янги нашр, 2010. – 543 с.
4. Қодирова Т.Ф., Лавров В.А., Маматмусаев Т.Ш. Ўрта Осиё шаҳарсозлик маданияти. Ўқув қўлланма. – Тошкент, 2014. – Б. 102-103.
5. М. К. Ахмедов. ЎРТА ОСИЁ МЕЪМОРЧИЛИГИ ТАРИХИ. ТОШКЕНТ. "ЎЗБЕКИСТОН". 1995.
6. Худойқулов Т.Д. XIX асрда Қўқон хонлигининг ижтимоий – сиёсий ва маданий ҳаёти. Тарих фан. номзод. ... дис. автореферати. – Тошкент, 2009. – 24 б.

Research Science and
Innovation House